

JAGIS MAYDONINING GEOLOGIK-GEOFIZIK O'RGANILGANLIGI

Aliyeva Iroda Shoraxmatovna

Geologiya fanlar universiteti

Sirtqi bo'limi 5-kurs talabasi

Aliyeva1990@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711412>

Annotatsiya: Jagis maydoni Ustyurt neft-gazli regionining istiqbolli hududlaridan biri hisoblanadi. Maydonda olib borilgan geologik-qidiruv ishlari hududning geologik tuzilishini o'rganish, foydali qazilmalar mavjudligini aniqlash hamda ularning sanoat ahamiyatini baholashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yuqori yura, o'rta yura, egiklik, darzlik, burmalar, qatlamlar, tektonika, yotqiziqlar.

Ma'muriy jihatdan Jagis tuzilmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida, tektonik jihatdan Ustyurt neftgazli regionining Sudochi egilmasi hududida joylashgan.

Hududning geologik o'rganilganligi 1950-yillardan boshlab Ustyurtning bepoyon hududida geologik-qidiruv va razvedka ishlari olib borish bilan boshlandi, parallel ravishda 1:200 000, 1:500 000, 1:1 000 000 masshtabda geofizik tadqiqotlar olib borildi.

Ustyurt platosining geologik tuzilishini o'rganish va foydali qazilmalarni qidirish maqsadida rejali geologik tadqiqotlar XX asrning 50 - yillarida boshlangan.

1957-yilga kelib butun Ustyurt hududi Orolbo'yi geologik-tasvirlash ekspeditsiyasi tomonidan 1:200 000 masshtabli geologik syomka amalga oshirilib, butun qamrab olindi. Ishlar natijasida geologik xarita tuzildi va neogen yotqiziqlari kesmasi o'rganildi.

1981-yilda Sanoat-geologiya qidiruv partiyasi - (SGQP) Orolbo'yi ekspeditsiyasidan V.A. Kruchinin va A.N. Kruchinin hududning K-40-IV, V varaqlari doirasida 1:200 000 masshtabli geologik syomka o'tkazdilar. Shu davrda L.F. Astafeva, V.I. Voronin, O.N. Ivanovlar tomonidan Janubiy Orolbo'yi hududining tektonik sxemasi va neftgazlilik istiqbollari xaritasi tuzildi. Tadqiq qilingan hududning geologik xaritasi tuzildi.

Xaritalangan maydon doirasida quyidagi tektonik elementlar ajratilgan:

- Markaziy Ustyurt antiklinal zonasining shimoli-sharqiy yonbag'ri;
- Barsakelmas egikligi;
- Olambek-Kabanbay ko'tarilma zonasi;
- Bukilish egriligi;
- Sulton-Uizdog'-Qalandin ko'tarilma mintaqasi.

1962-yilda A.M. Akramxodjayeov va Yu.M. Fedotov tomonidan Orol-Qizilqum va Ustyurt tektonik zonalar ajratilgan bo'lib, ular turli yoshdagi burmalanish xarakteriga ega va Arxangelskiy chizig'i bilan ajratilgan [1].

70-yillarning boshlarida Janubiy Orolbo'yi burmali poydevorining chuqurlikdagi tuzilishi va tarkibini o'rganish bilan M.A. Axmedjanov, A.A. Aripov, O.M. Borisov, K.K. Kurbaniyazov, I.A. Fuzaylov va boshqalar shug'ullanishgan.

1972-yilda S.S. Shuls Janubiy Orolbo'yining geologik tuzilishi, tektonikasi, magmatizmi, foydali qazilmalari muammolarini batafsil yoritib berdi.

1988-yildan boshlab "Toshkentgeologiya" davlat geologiya korxonasi geologlari guruhi tomonidan Orolbo'yi mintaqasida yangi mahalliy ko'tarilmalarni aniqlash maqsadida relyefni batafsil strukturaviy-geomorfologik tahlil qilish ishlari olib borildi (N.A.Ivanov, G.I.Barishev va

boshqalar, 1989y.). Sharqiy Ustyurtda 1964-1970-yillarda SGQP va Tadqiqotlar nazorat-kartografik geologik-qidiruv ekspeditsiyasi - (TNKGQE) tomonidan 1:100 000 masshtabli mufassal geologik syomka bajarilgan. U ko'plab profilli (chuqurligi 1200 m gacha) va strukturali quduqlarni burg'ilash bilan birga olib borildi. Bu ishlar neogen, paleogen va yuqori bo'ri yotqiziqlari kesimini o'rganish, ularning qalinligini aniqlash, neftgazlilik istiqbollari aniqlash va strukturalarni chuqur burg'ilashga tayyorlash imkonini berdi.

Ustyurtda tayanch, parametrik va izlov-qidiruv quduqlarini burg'ilash mezo-kaynozoy yotqiziqlarining qalinligini, geologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini, perm-trias va paleozoy yotqiziqlarining yotish chuqurligini aniqlash imkonini berdi. Bajarilgan geologik ishlar hajmi katta bo'lishiga qaramasdan, Ustyurtning turli geotektonik rayonlarida geologik o'rganilganlik darajasi bir xil emas. Eng yaxshi o'rganilgani Kuanish-Kosqal'a vali hisoblanadi.

1990-yilda Sudoche egilmasida Urga koni ochilishi munosabati bilan Sudoche egilmasini jadal o'rganish boshlandi, unda so'nggi yigirma yil ichida ko'plab gazkondensat konlari ochildi: Shimoliy Orol, Surgil, Sharqiy Berdax, Uchsoy, Shimoliy Berdax, Berdax, Urga, Shege, Shag'irliq va boshqalar.

Turli yillarda neft va gaz konlarini qidirish maqsadida hisobot ish maydoniga ega bo'lgan qo'shni maydonlarda burg'ilash ishlari olib borilgan.

1985-1988-yillarda Atau maydonining janubida joylashgan Orol maydonida chuqur burg'ilash ishlari olib borildi. Jami 5 ta quduq burg'ilangan. Gazlilik belgilari 2 - 4 - sonli quduqlardagi yuqori va o'rta yura yotqiziqlarida aniqlandi.

Atau maydonining g'arbida Dali koni joylashgan. Jami 6 ta quduq burg'ilangan. Gazlilik belgilari 1 - 2 - 3 - 4 - sonli quduqlardagi yuqori yura yotqiziqlarida aniqlandi. Jagis maydondan 15 km janubi-g'arbda eng yaqin joylashgan Urga koni hisoblanadi. Konda birinchi gaz oqimi olingan 4-sonli quduq bo'lib, 1990-yilda sinovdan o'tkazilganda 2460-2445 m, 2365-2350 m oraliqlardan 14,3 mm shtutserda kuniga 268 ming m³ debitli sanoat gaz oqimi olingan. Bugungi kunda konda 1 ta parametrik, 43 ta qidiruv-razvedka va ishlatish quduqlari burg'ilangan. Ochilgan kesimlarning stratigrafiyasi, litologiyasi bo'yicha ulkan geologik-geofizik materiallar to'plangan [2].

Geofizik o'rganilganlik - turli modifikatsiyadagi geofizik ishlar: magnitorazvedka, gravirazvedka, seysmorazvedka, elektrorazvedka Ustyurt platosida regional va qidiruv-detall xarakterdagi masalalarni yechish maqsadida bajarilgan.

Aeromagnet syomka 1:200000 masshtabda platonning butun hududida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida izodin xaritalari va ΔT_a grafiklari tuzildi. Keyinchalik "O'zgeofiztrest" va "ВСЕРЕН" tomonidan O'rta Osiyo magnet anomaliyalarining yig'ma xaritasi tuzildi.

1936-37-yillarda boshlangan gravimetrik tadqiqotlar 1956-1958-yillarda davom ettirilib, 1:50000 masshtabli gravimetrik syomka amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar natijalari bo'yicha og'irlik kuchi izoanomallarining yig'ma xaritalari tuzilgan bo'lib, ular Ustyurtning tektonik tuzilishini aniqlashtirish uchun manba bo'lib xizmat qilgan (Fomin V.V., Cherkashina L.G.).

Ustyurtda elektrorazvedka ishlari 1958-yilda "Спецгеофизика" kontorasi va "Узгеофизтрестом" tomonidan boshlangan. Platodagi elektr maydonlarini rejali ravishda o'rganish 1962-yilda Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi tomonidan boshlangan. Dipolli elektr manbai - (DEM), maydonning o'rnatilish jarayonini zondlash - (MO'JZ), o'tuvchi jarayonlar usuli - (O'JU), Magnitotellurik zondlash - (MTZ), modifikatsiyalarida elektrqidiruv tadqiqotlari

butun hududda ham mintaqaviy, ham qidiruv xarakteridagi muammolarni hal qilish va chuqur magnitotellurik zondlash – (ChMTZ) usuli bilan yer qobig‘i va yuqori mantiyaning geoelektrik xususiyatlarini o‘rganish va chuqur geologik tuzilish haqidagi mavjud g‘oyalarni aniqlashtirish maqsadida amalga oshirildi. ChMTZ ma‘lumotlariga ko‘ra, Moxorovichich chegarasi 60-75km chuqurlikda ajratilgan va yuqori o‘tkazuvchanlik qatlami - to‘lqin o‘tkazgich mavjudligi tasdiqlangan [3].

Platoda seysmik qidiruv ishlari 1956-yildan boshlab “Maxsus geofizika” kontorasi tomonidan Qiya singan to‘lqin usuli – (QSTU) modifikatsiyasida amalga oshirila boshlandi, so‘ngra 1959-yildan boshlab Buxoro geofizika ekspeditsiyasi seysmopartiyalari tomonidan Qaytgan to‘lqin usuli – (QTU) ishlari olib borildi va 1962-yildan boshlab Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi tomonidan Singan to‘lqin usuli – (STU)ning alohida uchastkalarida (QTU), Vertikal seysmik profillash – (VSP), Umumiy chuqurlik nuqtasi – (UChN) rejalashtirilgan seysmik tadqiqotlari boshlandi. Singan to‘lqinlarning korrelyatsion usuli – (STMU). Ustyurtda geologik tuzilishning umumiy xususiyatlarini o‘rganish uchun mintaqaviy xarakterdagi muammolarni hal qilish maqsadida qo‘llanilgan. QSTU natijalariga ko‘ra 1:50000 masshtabli poydevor bo‘yicha strukturaviy xarita tuzilgan (V.I. Korablina, V.G. Zufarov va b.), unda hududning umumiy tuzilishi berilgan, I va II-tartibli tektonik elementlar ajratilgan, tektonika sxemasi tuzilgan (T.L. Babadjanov, 1971-y.).

Vertikal seysmik profillash – (VSP) chuqur va strukturali quduqlarda kesimning tezlik tavsifini, to‘lqin maydonlarini, qaytaruvchi va sindiruvchi gorizontlarning stratigrafik bog‘lanishini o‘rganish maqsadida amalga oshirildi.

Ishlar natijasida qoplovchi yotqiziqlar (neogen, paleogen va senon) qalinligining o‘zgarishiga qarab qatlam va o‘rtacha tezliklarning kesim bo‘ylab o‘zgarish qonuniyatlari aniqlandi.

1982-1985-yillarda “Neftgeofizika” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining 84/82-86 Koson geologik ekspeditsiya – (KGE) partiyasi bilan hamkorlikda Sudoche egilmasi va unga tutash hududlarda portlashsiz seysmorazvedka usulini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha tajriba-uslubiy ishlar olib borilgan (R.Z. Chenborisova, 1985-y.). 1984-yilda Ajiboy-Qizilshali liniyasi bo‘ylab Orol III mintaqaviy profili ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yuqori yura yotqiziqlariga to‘g‘ri keladigan seysmik gorizontlarning egilishi kuzatilgan. Keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ular Urga, Orol, Berdaq, Amet deb nomlangan tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ishlar natijalariga ko‘ra, yuqori yura yotqiziqlarining ustki qismi bo‘yicha sxematik strukturaviy xarita tuzildi va qidiruv ishlarini davom ettirish uchun seysmik profillar tarmog‘i belgilandi, bu Qirqqiz tajriba-uslubiy partiyasi 1/85-88 tomonidan “Neftgeofizika” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi (R.Z. Chenborisova, 1988 y.). Ushbu ishlar natijalariga ko‘ra, Urgin strukturasi 1987-yilda T_{IV}^{II} qaytaruvchi gorizont bo‘ylab chuqur burg‘ilashga tayyorlangan (Ye.I. Chekalin, 1987-yil).

2000-2003-yillarda Borsakelmas egilmasining Markaziy qismida regional seysmorazvedka ishlari olib borildi. Ustyurt platosida trias davri yotqiziqlarining yo‘qligi chegarasi aniqlangan.

2001-2004-yillarda Shimoliy Ustyurt botiqligining shimoliy qismida va Borsakelmas egikligida seysmik qidiruv ishlari bajarilgan. Natijada, Samsk va Qo‘shbuloq botiqliklarining chuqur geologik tuzilishi, shuningdek, Oqtumsuk dislokatsiya tizimining Qo‘shbuloq va Samsk botiqliklari bilan tutashgan zonasi o‘rganilgan.

2003-2006-yillarda Sharqiy Ustyurt va Orolbo'yi hududlarida (UChN)ning qidiruv va regional seysmorazvedka ishlari bajarilgan. Natijada yuqori yura va perm-trias yotqizilari yuzasi bo'ylab izoxronlarning sxematik xaritalari va strukturaviy xaritalari tuzildi. Sam egilmasining janubiy qismi, Oqtumshuq dislokatsiyalar tizimi, Borsakelmas egilmasi, Yorqimboy va Ag'iy do'ngliklari va Quyonish-Qosqal'a valining geologik tuzilishi o'rganildi.

2005-2008-yillarda Janubiy Mang'ishloq-Ustyurt va Orol dengizi botiqliklarida regional seysmorazvedka ishlari bajarildi. 2008-2011-yillarda 01/08-11-sonli Qoraumbet seysmik partiyasi tomonidan seysmik-qidiruv ishlari olib borildi.

Olib borilgan keng ko'lamli geologik va geofizik tadqiqotlar natijasida Ustyurt platosining geologik tuzilishi yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda qo'shimcha qidiruv va razvedka ishlarini davom ettirish zarur hisoblanadi. Umuman olganda, Ustyurt mintaqasi O'zbekistonning eng istiqbolli neft-gazli regionlaridan biri bo'lib, uning tabiiy resurs salohiyati kelgusida ham yangi konlarni aniqlash imkoniyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A.R.Xo'jayev, A.M.Akramxo'jayev, A.G.Babayev va boshqalar. "O'zbekiston neft va gaz konlari", Toshkent sh. "Fan" 1974y.
2. G.S.Abdullayev, A.N.Bogdanov, O.A.Qarshiyev, "O'zbekiston Respublikasi neft va gaz konlari", Toshkent sh., 2026y.
3. A.Abidov, Y.Ergashev, M.Qodirov, "Neft va gaz geologiyasi" ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, Toshkent 2000 y.